

O'QUVCHILARNI RUHLANTIRISH USTOZ UCHUN ZARURMI

Xusainova Dilrabo Ibragimjanovna

Farg'onha viloyati yuridik texnikumi yuristlar uchun ingliz tili fani o'qituvchisi

3-darajali yurist

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11000526>

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'quvchilarni ruhlantirishning, ularga motivatsiya berishning, o'quvchilarni rag'batlantirishning dars jarayoniga beradigan ta'siri, o'quvchilarining darsga bo'lgan qiziqishlarining yanada ortishiga qay darajada yordam berishi to'g'risidagi savolga javob berishga harakat qilindi.

Kalit so'zlar: Motivatsiya, ruhlantirish, dars jarayonidagi motivatsiya, talabalarini ruhlantirish usullari.

IS IT NECESSARY FOR THE TEACHER TO ENCOURAGE STUDENTS

Abstract. In this article, an attempt was made to answer the question of the effect of encouraging students, giving them motivation, motivating students on the lesson process, and to what extent it helps to increase the interest of students in the lesson.

Key words: Motivation, encouragement, motivation in the lesson process, methods of encouraging students.

НУЖНО ЛИ ПРЕПОДАВАТЕЛЮ ПООЩРЯТЬ УЧЕНИКОВ

Аннотация. В данной статье предпринята попытка ответить на вопрос о влиянии поощрения учащихся, придании им мотивации, мотивации учащихся на процесс урока и в какой степени это способствует повышению интереса учащихся к уроку.

Ключевые слова: Мотивация, поощрение, мотивация в процессе урока, методы поощрения учащихся.

KIRISH

Dars jarayononi samarali o'tkazish o'quvchilarni dars jarayoniga bo'lgan qiziqishlarini oshirish uchun pedagog tarafidan beriladigan motivatsiya juda muhim hisoblanadi. Ma'lumki, bugungi kunda talabalarning fikrini chalg'itadigan, dars jarayoniga xalaqit beradigan minglab vositalar mavjud, xo'sh shunday vaziyatda pedagog nima qilishi lozim? Avvalo, pedagog juda yaxshi psixolog, motivator va korreksionist bo'lishi lozim. Nimaga? Chunki haqiqiy bilimli, oql va mehnatsevar insonlarni yetishtirish pedagoglarning zimmasida. Xo'sh o'quvchilarga motivatsiya berishning qanday usullaridan foydalanish kerak? O'zi qanday usullari bor? Quyida ushbu savollarga javob beramiz.

O'quvchilarni darsga qiziqtirish jarayonida quydagilardan foydalaniladi:

Darsga tayyorgarlik: Darsga tayyorgarlik ko'rayotganda (dars rejasini tuzishda) siz dars

mavzusini aniq belgilashingiz va shakllantirishingiz kerak. Keyin ushbu darsning qaysi yetakchi mavzulari to‘g‘risida qaror qabul qilishingiz va kelgusi darslarda ishlatalishi mumkin bo‘lgan o‘quv materialini - ushbu mavzuni rivojlantirish istiqbollarini aniqlashingiz kerak. Shuningdek, ushbu darsning o‘quv, rivojlanish va tarbiyaviy funktsiyalarini belgilash kerak.

O‘quv materialining tartibi: Mavzu bo‘yicha adabiyotlarni topamiz, agar materiallar talabalar uchun yangi bo‘lsa, to‘liq ma’lumotni topish kerak - universitet darsligi, boshlang‘ich manba (monografiya), ommabop ilmiy nashr, entsiklopedik nashr. Mavjud materiallardan biz faqat dars mavzusini sodda va aqli ravishda tushuntirib beradigan birini tanlaymiz.

Darsning ahamiyati: Yaxshi dars o‘quvchilarni hayratga, zavqlantiradigan va hayratga soladigan vazifalar va materiallarni o‘z ichiga olishi kerak. Bu qiziqarli fakt, hayratlanarli kashfiyat, kognitiv tajriba, mavjud va oddiy ko‘rinadigan vaziyatlarga nostandard yondashuv bo‘lishi mumkin. Qiziqarli manbaalarni qidirish va ularni topish kerak. Kerakli va qiziqarli materiallar topilgandan so‘ng, siz uni to‘g‘ri guruhlastingiz, u bilan ishslash ketma-ketligi haqida o‘ylashingiz va darsga tayyorgarlik ko‘rishingiz kerak. Darsda faol ishslashga olib keladigan, yangi narsalarni passiv idrok etishni istisno qiladigan materialni taqdim etishning aynan shunday shaklini topish kerak.

Darsda talabalarning faoliyati va bandligini nazorat qilishni rejalashtirish: Dars tayyorlayotganda, o‘zingiz qaror qilishingiz kerak: nimani boshqarish kerak; qanday boshqarish kerak va boshqarish natijalarini qanday ishlatalish kerak. Shuni yodda tutingki, talabalar qanchalik tez-tez nazorat qilinsa, xatolar va qiyinchiliklarni ko‘rish osonroq va siz o‘qituvchi sifatida ularning ishlariga jiddiy qiziqishingizni ko‘rsatasiz.

Sinfga tayyorgarlik: Darsni boshlashdan oldin, siz dars uchun zarur bo‘lgan barcha ko‘rgazmali qurollar, moslamalar, qo‘srimcha adabiyotlar va boshqalarni tayyorlastingiz kerak. Materiallar oldindan (aytaylik, tanaffus paytida yoki darsdan oldin “deraza” bo‘lsa) diagrammalar, jadvallar yoki tuzilgan qaydlar ko‘rinishida yozilishi mumkin, ayniqsa qiyin yoki muhim fikrlarni ta’kidlab.

Uy vazifasini tayyorlash: Uy vazifangizni oldindan rejalashtirishni unutmang. Asl bo‘lishga harakat qiling, empirik topshiriqlarni ishlab chiqing, ular uchun bolalar nafaqat darsliklardan foydalanishlari kerak, balki, masalan, uydan so‘roq qilish yoki uy-ro‘zg‘or buyumlari bilan tajriba o‘tkazish. Uy vazifasi bo‘yicha ko‘rsatma va uyga oid qo‘srimcha materiallar tayyorlang.

Dars jarayonini yaxshilashning qiziqarli qilishning yana bir qancha usullari bor, ulardan biri dars jarayonida interfaol usullardan foydalanishdir.

Hozirgi kunda texnologiyalar rivojlangan bo‘lib, kundan-kunga yangi texnikalar ixtiro qilinmoqda, o‘rganish va o‘rgatishning o‘ziga xos usullari, dars jarayonida kerak bo‘ladigan turli anjomlar ixtiro qilinmoqda. Masalan, biz mакtabda o‘qigan paytimizda, har bir sinfda elektron doska yoki televizorlar bo‘lmagan. Hattoki, prayektor hamda kompyuter topish ham muammo bo‘lgan. Hozir esa bu kabi muammolarga duch kelmaymiz. Bu nima degani, bu hozirgi davr bolalarining aqliy faoliyati ham o‘sib boryapdi degani. Ilgarilari yozish-chizish mакtabda o‘rgatilgan bo‘lsa, hozir bu vazifani Maktabgacha ta’lim muassasalari bajarmoqda. Bundan kelib chiqadiki, hozirda eski ta’lim berish usullaridan foydalanib bo‘lmaydi.

O‘quvchilarning qiziqishini e’tiborini tortish uchun yangi-yangi metodlarni o‘ylab topish va o‘quvchilarga darslarni oson va samarali usulda yetkazib berish darkor. Jumladan,

Kubiklar usuli. Kubiklar-o‘zgartirilayotgan kelajakka asoslanib mavzuni ko‘rib chiqishga yordam beradigan o‘qitish usulidir. Har tomonlama, fikrlashga (yozishga) yordam beradigan har xil yo‘l-yo‘riqlar yozilgan kubik ishlatiladi. Tomonlarining hajmi o‘rtacha 15- 20 sm bo‘lgan qutichaga qog‘oz yopishtirilib, kubik yasash mumkin. Kubikning har bir tomoniga oltita yo‘l-yo‘riq yoziladi: buni tasvirlang, buni taqqoslang, buni o‘zaro bog‘lanishini ko‘rsating, buni tahlil qiling, buni qo‘llang, yaxshi va yomon tomonlarini ko‘rsatiladi (daliilar yordamida). O‘tiladigan mavzu yoki biror tushuncha shu jadval savollari asosida tahlil qilib chiqiladi.

Venn diagrammasi. Venn diagrammasi bir - birini kesadigan ikki yoki undan ko‘p doiralarda ko‘riladi, ular o‘rtasida yozish uchun yetarli joy qolishi kerak. U g‘oyalarni zidlash uchun ishlatilishi yoki ularning umumiyligini xususiyatlarini (nimada ular kesishadi) ko‘rsatishi kerak. Masalan, o‘quvchilar Xristofor Kolumb ekspeditsiyalarini Marko Polo ekspeditsiyalari bilan taqqoslaydilar deylik. Venn diagrammasi bir-biriga yopishgan ikki doira bilan birga ushbu ekspeditsiyalar o‘rtasida zidlik o‘tkazish, ayni vaqtida ularning umumiyligini ko‘rsatish imkonini beradi.

Insert usuli. Insert usuli tushunishni kuzatish vositasidir. Insert - bu o‘quv jarayonida o‘z anglashini faol kuzatish uchun o‘quvchilarga imkoniyat beradigan kuchli vositadir, chunki shunday hollar borki, odam matnni oxirigacha o‘qib, u yerda nima yozilganligini eslab qololmasligi mumkin. Bu esa odam nima o‘qiyotganini tushunmay, o‘qish jarayonida faol bo‘lishga qatnashmaydigan va o‘z anglashini kuzatmaydigan hollarning misolidir. Insert - bu matn bilan ishlaganda faollikni qo‘llab- quvvatlash uchun kuchli vositadir. O‘quvchi matn bilan ishlayotganda bir qator belgilarni qo‘yib boradi, ular esa quyidagi ma’nolarni bildiradi: V - bilganlarimni tasdiqlaydi. + - yangi axborot, - - bilganlarimga zid keladi, ? - meni o‘ylantirib qo‘ydi. Bu usul aynan biz uchun judayam qulay bo‘lib hisoblanadi. Chunki hozirgi davrda hamma o‘qigan narsalarini unutib qo‘yadi yoki e’tiborsiz ravishda o‘qiydi. Insert usuli esa biz uchun ayni

muddao.

XULOSA

Xulosa o'rnida aytib o'tish joizki, interfaol usullar orqali ta'lim samaradorligi oshadi, o'qituvchi va talaba o'rtasida o'zaro hamkorlik, talabalarda erkin ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlanadi va shakllanadi. Bu innovatsion yondashuvda talaba shaxsi ta'limda markaziy figuraga aylanadi.

O'quv jarayonining mazmunli va qiziqarli o'tishi talabalarning darsga bo'lgan qiziqishlarini rivojlanishiga juda katta yordam beradi. Zotan bugungi rivojlangan davrda profissional dars o'tkazmaslik dars jarayonining qiziqarli o'tmasligi kelajagimizning poydevorlariga putur yetkazadi demaktir.

REFERENCES

1. Mirziyoyev Sh.M.Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil yakunlari va 2017-yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nutqi. // Xalq so'zi gazetasi, 2017.16-yanvar, №11.
2. R.A.Mavlonova, B.Normurodova "Tarbiyaviy ishlar metodikasi" Toshkent 2007.
3. N.Egamberdieva "Tarbiya texnologiyasi" Fan va texnologiyalar 2016-yil.
4. R.A.Mavlonova, D.Abdurahimova. Pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma Toshkent Fan va texnologiya 2012-yil .
5. S.Nishonova, M.Imomova, R.Xasanov. Pedagogika tarixi. Darslik Toshkent O'qituvchi 1996-yil.
6. M.Ochilov. Muallim qalb me'mori. O'quv qo'llanma Toshkent O'qituvchi 2004-yil.